

"QISASI RABG'UZIY" ASARINING BADIY - ESTETIK TALQINI

Xayrullayeva Huriniso Jahongir qizi
ToshDO'TAU 1-bosqich tayanch doktoranti

Nosiruddin Rabg'uziy tomonidan yozilgan "Qisasi Rabg'uziy" asari nafaqat diniy-ma'rifiy mazmuni, balki badiiy uslubi, kompozitsion qurilishi va xalq og'zaki ijodi uyg'unligi bilan ham ajralib turadi. Asarda hikoyat, rivoyat, latifa, savol-javob, hikmat va hadis kabi turli adabiy janrlar birgalikda qo'llanilgan. Masalan, hikoyat shaklida bayon etilgan voqealar orqali payg'ambarlar hayotidagi muhim lavhalar tasvirlanadi, rivoyatlar esa tarixiy voqealarning badiiy talqinini beradi.

Har bir qissada sabr, shukr, halollik, adolat, mehnatsevarlik kabi fazilatlar ulug'lanadi, kibr, hasad, yolg'onchilik kabi illatlar qoralanadi. Masalan, Namrud haqidagi hikoyada uning takabburligi va Allohni inkor etishi oqibatida boshiga tushgan musibatlar tasvirlanadi, bu orqali kibr va manmanlikning yomon oqibatlari ko'rsatib beriladi. Bu asar faqat diniy mazmunni emas, balki o'zining yuksak badiiy shakllanishi, til boyligi va tasviriy vositalarining keng qo'llanilishi bilan ham ajralib turadi. Ayniqsa, o'xshatishlar (tashbeh), istioralar, kinoyalar kabi badiiy san'atlar orqali asarning estetik qiymati yuksaltirilgan. Mazkur asarda o'xshatish vositasi muallif tomonidan axloqiy va diniy g'oyalarni ta'sirchan yetkazish usuli sifatida faol qo'llanilgan. Payg'ambarlarning fazilatlari ko'pincha tabiatdagi go'zal va ulug'narsalarga o'xshatiladi. Masalan, Yusuf payg'ambar go'zalligi oftobning nurlari, qiyofasi gulning husniga qiyos etiladi. Bu orqali o'quvchining tasavvur olami kengaytiriladi va obraz yanada yorqin aks ettiriladi.

"Qisasi Rabg'uziy" kompozitsiyasi jihatidan har bir payg'ambar qissasi alohida syujetga ega bo'lib, ular o'zaro mantiqiy bog'lanishda joylashtirilgan. Masalan, Sulaymon payg'ambar haqidagi qissalar bir nechta kichik hikoyatlarga bo'linadi: "Sulaymon bilan mo'rcha", "Sulaymon va hudhud", "Sulaymon va Bilqis" kabi. Bu hikoyatlar orqali Sulaymonning donoligi, adolati va hayvonlar bilan muloqotdagi mohirligi tasvirlanadi. Asarda xalq og'zaki ijodining ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi. Qissa va hikoyatlarda xalq ertaklariga xos bo'lgan obrazlar, masalan, tulki, yo'lbars, to'ng'iz, ilon kabi hayvonlar orqali insoniy illatlar va fazilatlar tasvirlanadi. Bu uslub orqali muallif o'quvchiga murakkab g'oyalarni sodda va tushunarli shaklda yetkazishga erishadi.

Ko'plab o'xshatishlarda muallif ramziy obrazlardan foydalanadi. Iymon egasi odam "toza suv kabi musaffo", kofir esa "loyqa daryo kabi iflos" tarzida talqin etiladi. Bu turdagi o'xshatishlar orqali axloqiy ustuvorliklar qat'iy belgilab

qo‘yiladi. O‘xshatishlar ba‘zan hayvon obrazlari bilan ham beriladi. Masalan, zulmkor hukmdor “yovvoyi hayvon”, adolatli shoh esa “rahmdil sher” yoki “boshpanali to‘qay” tarzida ifodalanadi. Bu orqali muallif obrazlar xarakterini chuqur ochishga erishadi.

Asarning yozilish uslubida savol-javob ham keng ishlatilgan. Bu uslub diniy mavzularni tushunarli qilish, o‘quvchi bilan muloqotda bo‘lish va tafakkurni faol holga keltirishga xizmat qiladi. Jumladan, biror qissadan so‘ng “Nechuk bo‘ldi bu ish?” degan savol berilib, izohli javob bilan davom etiladi. Asarda ko‘p hollarda “hikoya qilinurkim”, “rivoyat qilurlar” kabi iboralar bilan matn boshlanadi. Bu esa og‘zaki xalq adabiyoti bilan yozma adabiyotning tutashganligini ko‘rsatadi. Muallif ohangdorlikka alohida e‘tibor bergan. Jumladan, so‘zlarning qofiyadosh kelishi, alliteratsiya va assonans elementlarining ishlatilishi asarning tinglovchi va o‘quvchiga ta‘sirini oshiradi. Bu xususiyatlar ayniqsa she‘riy parchalar va duolar bo‘limida yaqqol ko‘rinadi. Asarda she‘riy parchalar kelish o‘rinlari turlichadir: Biror qissaning boshlanish qismida shu qissa qahramoni tarifiga bag‘ishlangan she‘rlar; Muayyan qissada bayon etilayotgan voqea tarkibida qahramonlar tilidan aytiladigan she‘riy parchalar; Qissalar yakunida muallif tilidan xulosaga qo‘shimcha beriladigan she‘riy parchalar.

Asarda ayol obrazlari ham axloqiy va diniy qadriyatlar asosida tasvirlanadi. Xususan, Bilqis malika obrazida dono, mustaqil qaror qabul qila oladigan, oqilona fikrlovchi ayol siymosi gavdalanadi. Bu esa o‘rta asr adabiyotida ayol shaxsining faol va ijobiy obrazini yaratishdagi muhim qadamdir. “Qissasi anbiyo” Sharq adabiyotidagi qissachilik an‘analarini boyitgan. Unda hikoyat usulining takomillashuvi, dramatik voqealarning bosqichma-bosqich ifodalanishi va badiiy kutilmagan yakunlar orqali o‘quvchini chuqur mushohadaga undash usuli kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, “Qissasi anbiyo” bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki yangi mazmun kasb etib, jamiyatimizda ma‘naviyat, axloq, tarixiy xotira va diniy-ma‘rifiy bilimlar sohasida muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. U yoshlar tarbiyasi, milliy ong va o‘zlikni mustahkamlash, adabiy tafakkurni boyitish va zamonaviy ilmiy-tadqiqotlar uchun bebaho asar bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nosiruddin Rabg‘uziy. Qissasi Rabg‘uziy. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1990.
2. Yo‘ldoshev O. O‘zbek adabiyoti tarixi (I jild). – Toshkent: Fan, 1977.

3. Gulomov N. O‘zbek nasriy adabiyotining dastlabki namunasi – “Qissasi Rabg‘uziy” haqida. – “Fan va turmush”, 1961, №5.
4. Abdurahmonov A. O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivoji. – Toshkent: Fan, 1976.
5. Jumayev A. Turkiy adabiy manbalar va diniy-ma’rifiy tafakkur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.
6. <https://ziyonet.uz>
7. <https://adabiyot.uz>